DORIAN GREYNING PORTRETI ASARIDA MUSAVVIR OBRAZI VA SAN'AT FALSAFASI

Abdumalikova Nazokat

Farg'ona Davlar Universiteti talabasi

Anotatsiya

Mazkur maqolada "Dorian Greyning portreti" asarida musavvir obrazi badiiy-estetik jihatdan tahlil qilinadi. Asarda musavvir — Bezil Xolluord obrazi orqali san'atning ma'naviy mohiyati, go'zallik va axloq o'rtasidagi murakkab munosabatlar yoritiladi. Muallif Oskar Uayld san'atni hayotdan ustun qo'yish g'oyasini ilgari surgan bo'lsa-da, aynan musavvir obrazi orqali san'atkorning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va ijodiy mas'uliyati ochib beriladi. Maqolada shuningdek, portret timsolining ramziy ma'nosi va uning bosh qahramon taqdiri bilan uzviy bog'liqligi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar

musavvir obrazi, san'at falsafasi, estetika, portret ramzi, go'zallik va axloq, badiiy obraz, individualizm, dekadentlik, ruhiy ziddiyat, ijodkor shaxsiyati.

Badiiy adabiyotda san'atkor obrazi muhim estetik va falsafiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. San'atkor orqali muallif jamiyat, go'zallik, axloq va ijod o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi. Oskar Uayldning "Dorian Greyning portreti" romani ana shunday asarlar sirasiga kiradi. Ushbu asarda musavvir obrazi orqali san'atning mohiyati, uning inson ruhiyati bilan aloqasi va axloqiy chegaralari yoritiladi.

Asarnining muqaddima qismida san'atkorga muallif tomonidan ta'rif berib o'tilgan: " San'atkor go'zallik yaratuvchidir. San'at intiladigan maqsad – odamlarga o'zini oshkor qilib, ularning nazaridan san'atkorni yashirib qolishdir. Munqaqid – go'zallikdan olgan taassurotini yangi shaklga yoki yangi vositalar bilan ifodalab berishga qodir odam. Tanqidning oliy shakli ham, quyi shakli ham – avtobiografiyaning turlaridan biridir. Go'zal narsadan illat topadigan odamlar aynigan odamlardir. Biroq aynish ularni yoqimliroq qilib qo'ymaydi, albatta. Bu katta gunohdir. Go'zallikda uning yuksak ma'nosini ko'rishga qobil odamlar madaniyatli odamlardir. Ularga umid bilan qarasa bo'ladi" – deya ta'riflaydi.

Romanda musavvir obrazi Bezil Xolluard timsolida gavdalanadi. U asardagi eng sof, ma'naviy jihatdan pok qahramonlardan biridir. Bezil san'atni faqat go'zallikni ifodalovchi vosita emas, balki inson qalbining aks-sadosi sifatida tushunadi. Uning Dorian Greyga bo'lgan munosabati oddiy qiziqish emas, balki chuqur estetik va ruhiy bog'liqlikdir.

Bezil yaratgan portret asarning markaziy ramziga aylanadi. Ushbu portret Dorianning tashqi go'zalligini aks ettirish bilan birga, uning ichki dunyosidagi o'zgarishlarni ham ko'rsatib boradi. Shu orqali musavvir obrazi san'atning haqiqatni ochib berishdagi rolini namoyon etadi.

Bundan tashqari romanning asosiy g'oyaviy markazi — bu portretdir. Rassom Beyzil Xolluord yaratgan tasvir Dorianning tashqi qiyofasi emas, balki uning haqiqiy ruhiy olamini aks ettiruvchi ko'zgu vazifasini bajaradi. Dorian nafsga, zavqparastlikka, lazzat ketidan quvishga berilgan sari portret tobora xunuklashadi. Shu orqali Uayld inson ruhining ichki o'zgarishi har doim tashqi ko'rinishda aks etmasa-da, haqiqat baribir mavjudligini ta'kidlaydi. Portret — vijdonning badiiy timsoli bo'lib, u Dorian yashirmoqchi bo'lgan barcha ma'naviy dog'larni fosh etadi.

Ruhiy tanazzul boshlangan sari obrazning ichki olami zaiflashadi, vijdon tovushi pasayadi, qalb qotadi. Ammo bu o‘zgarishlar uning tashqi qiyofasida namoyon bo‘lmaydi — ular faqat portretda aks etadi. Bunday badiiy yechim insonning ichki olami va tashqi qiyofasi o‘rtasidagi jarlikni yanada kuchliroq ko‘rsatadi.

Oskar Uayld asarda san’atni hayotdan ustun qo‘yish g‘oyasini ilgari suradi. Biroq Bezil obrazi orqali san’atkorning axloqiy mas’uliyati ham ko‘rsatib beriladi. U o‘z asariga qalbini qo‘shgani sababli, uning taqdiri ham fojiali yakun topadi. Musavvir obrazi orqali muallif san’at va axloq o‘rtasidagi ziddiyatni ochib beradi. Dorian Grey go‘zallik va lazzat ortidan quvib, ma’naviy tubanlikka yuz tutadi, ammo Basil san’at orqali poklikni saqlab qolishga intiladi.

Xulosa qilib aytganda, “Dorian Greyning portreti” asarida musavvir obrazi san’at falsafasini ochishda muhim rol o‘ynaydi. Bezil Xolluard timsoli orqali muallif san’atning nafaqat go‘zallikni, balki haqiqat va axloqni ham ifodalashini ko‘rsatadi. Bu obraz orqali san’atkorning ichki dunyosi, uning mas’uliyati va fojiasi chuqur yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharipova, N. “Oskar Uayld ijodida estetizm masalasi.” – O‘zbek adabiyoti va san’ati jurnali, 2021.
2. Qodirova, G. “Dekadentizm oqimi va uning jahon adabiyotidagi talqini.” – Filologiya masalalari, 2020.
3. Abdullayev, S. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
4. Karimov, H. Badiiy obraz va talqin masalalari. – Toshkent: Fan, 2015.
5. Шестов, Л. Апофеоз беспочвенности. Уайлд haqidagi bo‘lim. – Москва, 1992.